

**MUSTAQIL ISH JARAYONIDA TALABALARNING DIDAKTIK
KOMPETENSIYASINI INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK VA DIDAKTIK SHART-
SHAROITLARI**

Muqimov Bayramali Raximovich

*p.f.f.d. (PhD), "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va
agrotexnologiyalar instituti*

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri - bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi» to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqil ta'lim olishda talaba o'zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televidenie, elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari, internet resurslari, Ziyonet materiallari va o'quv-uslubiy majmualardan foydalanishi nazarda tutiladi. Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi.

Bundan tashqari talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda interfaol o'qitish usullaridan foydalanish juda muhim sanaladi. Interfaol metod – bu ("inter" – bu o'zaro, "act" – harakat qimoq) ma'nolaridan kelib chiqib, o'zaro harakat qilmoq, hamkorlik qilmoq, hamkorlik muloqot tartibida bo'lishni anglatadi.

Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish – o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;



o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol o'qitish usullari talabalarning bir-birlari, o'qituvchi, dialog, ta'lim, ishbilarmon va rolli o'yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani o'zlashtirish uchun o'quv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarni tahlil qilish asosida interaktiv o'qitish usullarining xususiyatlari (metodlari) boshqa guruh usullaridan ajralib turadigan xususiyatlar aniqlandi: faoliyatning guruhiy tarkibi; talabalarni guruh faoliyatida o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilishda o'zaro muloqotga jalb qilish: "talaba-talaba", "talaba-o'qituvchi", "talaba-kompyuter", "talaba-kitob"; o'zaro munosabatlar sub'ektlarining konstruktiv, teng huquqli muloqotiga yo'naltirilgan; turli madaniy matnlar (diagramma, grafik, formulalar, vazifa, ilmiy, badiiy matnlar, internet va boshqalar) bilan ishlashga yo'naltirilganligi; o'zaro hamkorlikning faol ishtirokchilari; natija olish uchun konstruktiv mahsulotni (natijalarni) va guruhlarning o'z-o'zini boshqarishini ta'minlaydigan ta'sir doirasini tashkil etish; interfaol o'qitish usullarining gumanitar tabiati, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, muhim kasbiy muammolarni hal qilish, ko'plab kasbiy pozitsiyalarning paydo bo'lishi va qabul qilinishi, refleksiya (guruhli va individual).

N.A.Muslimovning fikricha "Mustaqil ta'lim – bilimlarni o'zlashtirish, tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir" [102].

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol – topshiriqlar, mashqlar yoki misol – masalalar hisoblanadi.

Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida – alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni

mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea – hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi.

Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan angatiladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol – topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoyalashga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak.

Demak, mustaqil ta'lim – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

N.A.Muslimov o'z tadqiqotlarida mustaqil ta'limning auditoriyadagi (hamkorlikdagi mustaqil ta'lim) va auditoriyadan tashqari (individual mustaqil) tashkil etuvchilari haqida fikr yuritgan. Mustaqil bilim olishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog'liq. Mustaqil bilim olishda didaktika tamoyillari hamda nazariya va pedagogik texnologiyalar asosiy rolni o'ynaydi.

Shularni inobatga olgan holda biz mustaqil ish va mustaqil ish jarayoniga o'z yondashuvlarimizni keltirib o'tdik.

Mustaqil ish - bu oliy ta'lim muassasalarida fanlardan shunday bilim olish turi bo'lib, bunda talabalarning o'z oldilariga interfaol ta'lim metodlari asosida u yoki bu vazifalarni, maqsadlarni ongli ravishda qo'yishi, o'z faoliyatini rejalashtirish va uni amalga oshirishi hamda o'zini baholay olish qobiliyatlari bilan aniqlanishidir.

Mustaqil ish jarayoni – talabalarning o'quv-tarbiya jarayonida mustaqil faoliyatini auditoriyada, auditoriyadan tashqari va mustaqil ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan jarayondir.

Mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg'ulot turi mustaqil ta'lim bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars va darsdan so'ngi faoliyati faolligini ta'min etishga yo'naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas'uliyatni his qilishni ta'min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat.

Ma'lumki, mustaqil ta'limni yo'lga qo'yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma'lum ma'noda global professionallik masalasi ham o'z tasdig'ini topmog'i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol haraktni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o'zining diqqatini muayyan ob'ektga qarata oladi.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



Talabalarning fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun dastlab, ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hamda ta'limiy yondashuvlarni hisobga olish zarur.


Tizimli yondoshish tizim sifatida o'rganilayotgan hodisaga-yaxshi tuzilgan va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan elementlar to'plami (I.V.Blauberg, V.N.Sadovskiy, E.G.Yudin), o'zaro ta'sir qiluvchi ob'ektlar to'plamiga munosabatni o'z ichiga oladi. Talabalarning didaktik kompetensiyasini shakllantirishga tizimli yondashuvning mohiyati shundan iboratki, didaktik kompetensiyaning nisbatan mustaqil tarkibiy qismlari alohida holda emas, balki boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarda ko'rib chiqiladi; bu holda har qanday ob'ekt ham tizim sifatida, ham kattaroq, qamrab oluvchi tizimning elementi sifatida ko'rib chiqiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash insonning shaxs sifatida ijtimoiy, faoliyatli va ijodiy tabiati haqidagi fikrni tasdiqlaydi (Ye.V.Bondarevskaya, I.S.Yakimanskaya va boshqalar). Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning bir qismi sifatida, talabalar o'zlarining ta'limotlarini ularning ehtiyojlariga javob beradimi yoki yo'qmi nuqtai nazaridan baholay boshlaydilar. O'zining ichki bahosi o'zi va hayoti bilan yarashish sifatida ko'rinadi. Natijada, texnika oily ta'lim muassasasi talabalari shaxsining rivojlanishi ta'limni tashkil qilishda dominant omilga aylanadi.

Faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuv doirasida didaktik kompetensiya bilim, ko'nikma, qadriyatlar, tajriba, shaxsiy fazilatlar, turli yo'llar bilan aks ettirishni o'z ichiga olgan shaxsning integrativ xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining didaktik kompetensiyasini shakllantirishga faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim natijasiga e'tibor qaratiladi va natijada o'rganilgan ma'lumotlarning miqdori emas, balki talabalarning ta'limiy-o'quv faoliyatini samarali amalga oshirish qobiliyatidir. Aks holda, bu talabalarning didaktik kompetensiyasini shakllantirishga shart-sharoit yaratadigan didaktik bilim va ko'nikmalar tizimi bo'ladi.

Didaktik ko'nikmalar deganda, biz talabaning o'zlashtirgan asosiy didaktik bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan, talabaning ongli va mazmunli amaliy harakatlarida namoyon bo'ladigan, ijodiy o'sishi mumkin bo'lgan va turli didaktik vazifalarni yechishga qaratilgan faoliyat usullarini tushunamiz. Biz ularni kasbiy va xususiy didaktik ko'nikmalarga ajratamiz.

Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan tashkil etiladigan mustaqil ishlar auditoriyada va auditoriyadan tashqarida hamda axborot kommunikatsiya tizimlari hamda vositalaridan foydalangan holda tashkil etilishi mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Zamonaviy ta'limda mustaqil ish shakllari

Shunday qilib, umr bo'yi ta'limni hayotga tatbiq etish mustaqil va doimiy ravishda o'rganish qobiliyatini anglatadigan o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'qitish texnologiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu munosabat bilan talabalarning mustaqil ishlarining o'ri sezilarli darajada oshadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim mazmuniga, o'qitish uslubiyatiga yangi talablar qo'yilmoqda. Tadqiqot davomida biz tomonimizdan "Kasb ta'limi" yo'nalishlarida olib borilayotgan ta'lim jarayonining hozirgi xolatini mashg'ulotlarni bevosita kuzatish, o'quv-me'yoriy, o'quv uslubiy va didaktik ta'minotni tahlil qilish, talaba va pedagoglar bilan suhbat, savol-javob va anketa so'rovnomalarini o'tkazish asosida chuqur o'rganib chiqildi.

Olib borilgan tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning asosiy qismi mustaqil ish jarayonini tashkil etishning an'anaviy, ya'ni ilgari qo'llanilgan usullarni yaxshi o'zlashtirib olishgan (referat, esse), lekin ular o'qitishning yangi interfaol texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanmayaptilar. Ya'ni, mustaqil ishlarni aynan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish, mashg'ulotlarini loyihalash, AKTlaridan va internet tarmoqidan ta'limiy maqsadlarda foydalanish, rolli o'yinlar, amaliy o'yinlar, kompyuter o'yinlari, mustaqil bilim olish va boshqa interfaol metod va usullar talabalarda kasbiy –pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi oshiradi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bo'lajak muhandis-pedagogning kasbiy shakllanishiga yordam beruvchi muhim pedagogik va didaktik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkinligiga ishonch hosil qilindi:

1. Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o'quv binolari, o'quv auditoriyalari, o'quv ustaxonalari, amaliy-laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, laboratoriya asbob-uskunalari, magnitofonlar (audio, video), trenajyorlar, videoproektor, texnik

vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar).

2. O'quv-metodik me'yoriy hujjatlar (Davlat ta'lim standarti, namunaviy o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, namunaviy va ishchi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).

3. Ilmiy pedagogik xodimlar salohiyati (professor, dotsent, o'qituvchi, malakali ishlab chiqarish ta'limi ustalari, rahbar va texnik xodimlar).

4. Ijtimoiy va o'quv-texnologik muhit (o'qituvchilar, talabalar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, talabalarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlar birligi va boshqalar).

5. Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Keltirib o'tilgan pedagogik shart-sharoitlardan tashqari mustaqil faoliyat strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilarning tobora ko'proq e'tiborini jalb qilish mustaqil ish samaradorligini oshirish muammolarini keltirib chiqara boshladi. Shulardan biri bu nafaqat fan bilimlari, ko'nikmalarini shakllantirish, balki talabalarni qanday qilib o'rgatish, ya'ni, o'quv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning turli usullarini o'zlashtirish. Bunga turli xil ta'lim strategiyalarini qo'llash orqali erishiladi.

Nazariy tadqiqotlar va pedagogik amaliyot tajribasi tahlili talabalarning mustaqil ishlash strategiyasini shakllantirishning eng muhim omili sifatida didaktik shart-sharoitlarni yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Asosiy didaktik shart-sharoitlardan biri, bizning fikrimizcha, tabiatda faol bo'lgan va talabaning tashqi va ichki (aqliy) faoliyatida namoyon bo'ladigan o'quv jarayonini qurishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil ish uchun strategiyalarni shakllantirish mashqlarida mustaqil ta'lim faoliyati tabiati doimiy ravishda boshqariladigan, qisman o'qituvchi tomonidan boshqariladigan va talabalar tomonidan boshqariladigan holatga o'zgarishi mumkin.

Shunday qilib, mustaqil ishni tashkil etishga faol yondoshish, uning maqsadi mustaqil ish strategiyasini o'zlashtirish, talabalarni o'z ta'limotlarining faol sub'ekti pozitsiyasiga qo'yishdir. Bizning fikrimizcha, talabalarning faolligi va mustaqilligini ta'minlaydigan o'quv jarayonini qurish mustaqil ish strategiyasini shakllantirishning yana bir didaktik shartidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. .. ped. f. d. – T.:2007. – 315 b.
2. Muslimov N.A. Qulieva Sh.H. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 54 b.
3. Nuridinov B.S. Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped.fan.nomzodi – Toshkent: O'MKHTTRI, 2002. – 128 b.
4. Muqimov B.R. Forming Communicative Competence of Technical Higher Education Institution Students by Innovative Means // Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2019. – № 4. – P. 409-412.
5. Muqimov B.R. Talabalar mustaqil ish jarayonida dasturiy didaktik majmuaning o'рни va ahamiyati // «Mug'allim hэм yzliksiz bilimlendirio'». – Nukus, 2019. – № 6. – B. 48-52.
6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.
7. Махова Ю.В. Использование группового консультирования при формировании дидактической компетентности педагогов // Среднее проф. образование. 2009. №5. С. 46-48.
8. Храмова Е.В. К вопросу развития дидактической компетентности преподавателя вуза // Вестник Новгородского государственного университета. 2010. №58. С. 51-54.
9. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы [Текст] / А.В. Хуторской // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58-64.